

## O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Ziyoyev Shuhratxon Shokirovich,

Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 4-maktab logoped o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18746667>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilar nutqini o'stirish jarayonida xalq og'zaki ijodi namunalaridan (ertak, topishmoq, maqol, matal, tez aytish, afsona va rivoyatlar) foydalanishning pedagogik afzalliklari yoritiladi. Xalq og'zaki ijodi o'quvchining so'z boyligini kengaytirish, obrazli fikrlashni rivojlantirish, bog'lanishli nutqni shakllantirish hamda talaffuz va fonematik eshituvni mustahkamlashda samarali vosita sifatida asoslanadi. Maqolada boshlang'ich sinf sharoitida folklor asosidagi mashq va topshiriqlarni tanlash hamda qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, folklor, nutqni o'stirish, boshlang'ich sinf, so'z boyligi, bog'lanishli nutq, fonematik eshituv, talaffuz, kommunikativ kompetensiya, milliy qadriyatlar.

**Аннотация.** В статье рассматриваются педагогические преимущества использования образцов устного народного творчества (сказки, загадки, пословицы, поговорки, скороговорки, легенды и предания) в развитии речи учащихся. Показано, что фольклор способствует расширению словарного запаса, формированию образного мышления, развитию связной речи, а также укреплению произносительных навыков и фонематического слуха. Предлагаются методические рекомендации по отбору и применению фольклорного материала в условиях начальной школы.

**Ключевые слова:** устное народное творчество, фольклор, развитие речи, начальная школа, словарный запас, связная речь, фонематический слух, произношение, коммуникативная компетентность, национальные ценности.

**Annotation.** This article explores the pedagogical benefits of using folklore genres (fairy tales, riddles, proverbs, sayings, tongue twisters, legends, and narratives) to foster students' speech and language development. Folklore is discussed as an effective resource for expanding vocabulary, developing figurative thinking, building coherent oral discourse, and strengthening pronunciation and phonological awareness. Methodological recommendations are provided for selecting and integrating folklore-based tasks in primary school instruction.

**Keywords:** folklore, oral tradition, speech and language development, primary school, vocabulary enrichment, coherent speech, phonological awareness, pronunciation, communicative competence, cultural values.

**Kirish.** Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogikaning doimiy diqqat markazida bo'lgan va bu bejiz emas. Zero, ushbu davrda nutq shunchaki muloqot vositasi bo'lishdan to'xtab, mantiqiy tafakkur va kommunikativ kompetensiyani shakllantiruvchi asosiy kognitiv qurolga aylanadi. Bolaning nutqiy qobiliyati uning o'z fikrini tizimli bayon etishi, tahlil qilishi va jamiyatda o'zligini namoyon etishida poydevor vazifasini o'taydi. Aynan shu davrda o'quvchining lisoniy olami kengayishi bilan birga, uning ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, hayotiy zarur ko'nikmalarni shakllantirish jarayonlari sodir bo'ladi. Tadqiqotning mazkur faslida ana shu jarayonda xalq og'zaki ijodi namunalarining pedagogik-psixologik rolini tizimli tahlil qilishni maqsad qildik.

Xalq og'zaki ijodi namunalari shunchaki adabiy meros emas, balki ta'lim jarayonining bir necha muhim yo'nalishlarini o'zida birlashtirgan universal didaktik manbadir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, folklor matnlari bolalarning kognitiv imkoniyatlariga to'liq mos keladigan noyob psixolingvistik xususiyatlarga ega. Uning integrativ mohiyatini quyidagi uch fundamental aspektda ko'rish mumkin:

**Adabiyotlar sharhi.** Folklor namunalari o'zbek tilining eng sof va eng jozibador qoliplarini o'zida saqlagan xazinadir. Ular nafaqat o'quvchining so'z boyligini oshiradi, balki so'zning musiqiyliqi, ritmi va ohangdorligini his qilishga o'rgatadi. Ayniqsa, tez aytish va topishmoqlar fonematik idrokni, artikulyatsion apparatni rivojlantirishda yuqori samara beradi. Folklor matnlardagi qofiya va vazn bolaning miyasida "fonetik xarita"ni hosil qiladi. Natijada o'quvchi so'z tarkibidagi murakkab tovush birikmalarini o'yin va ritm orqali oson o'zlashtiradi. Bu, ayniqsa, nutqiy nuqsoni bor bolalar uchun tovushlarni farqlashda eng samarali usul hisoblanadi. An'anaviy logopedik mashqlarda o'quvchi diqqatini faqat tovush talaffuziga qaratishi uning tez charchashi, o'quv motivatsiyasining pasayishi va zerikishiga olib keladi. O'yin va ritm esa diqqatning ixtiyoriy konsentratsiyasini ta'minlab, murakkab lingvistik materialni "kichik qadamlar" (micro-learning) tamoyili asosida o'zlashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv bolaning emotsional holatini barqarorlashtirish bilan birga, yangi nutqiy ko'nikmalarning mustahkamlanishini ham tezlashtiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** N.N.Malofeev tadqiqotlariga ko'ra, imkoniyati cheklangan bolalarda lug'at boyligi ko'pincha qoliplashgan so'zlar bilan cheklanib qoladi[1:469]. Bu bolaning kundalik muloqotda doimiy takrorlanuvchi va hissiy bo'yoqdan xoli bo'lgan so'z shakllari bilan kifoyalanishini anglatadi. Bunday qoliplashgan nutq o'quvchining mantiqiy tafakkuri bilan emotsional dunyosi o'rtasidagi aloqani uzib qo'yadi, natijada uning nutqi monoton va quruq bo'lib qoladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalar nutqidagi "quruqlik" va monotonlik nafaqat lug'at boyligining kamligi, balki nutqning prosodik komponentlari (intonatsiya, ritm, urg'u, temp) hamda hissiy-estetik bo'yoqlarning yetishmasligi bilan ham tavsiflanadi. Xalq qo'shiqlari, she'riy ertaklar va tez aytishlar bolani ixtiyorsiz ravishda nutq ohangini o'zgartirishiga, savol, hayrat, quvonch, ta'kid kabilarni ifodalashga o'rgatadi. Bu esa uning tinglovchi tomonidan idrok etilishini yengillashtiradi. Qolaversa, folklor asarlardagi sinonim, antonim, paronim, omonim so'zlar, frazeologizmlar bolaning "passiv" lug'atini faol holatga o'tkazadi. Maqollar orqali bola so'zning ko'chma ma'nolarini, loflar orqali esa mubolag'a kabi uslubiy vositalarni amalda qo'llashni o'rganadi.

**Natijalar.** Agar lingvodidaktika nutqning tashqi tomonini shakllantirsa, psixologik-korreksion yondashuv bolaning nutqiy faolligiga to'sqinlik qiluvchi ruhiy to'siqlarni bartaraf etishga qaratiladi. Ma'lumki, imkoniyati cheklangan bolalarda, ayniqsa, nutqiy nuqsoni bor o'quvchilarda muvaffaqiyatsizlik qo'rquvi ustuvor bo'ladi. Ular o'z fikrini

noto'g'ri bayon qilish yoki tengdoshlari tomonidan kulgiga qolishdan qo'rqadilar. Zamonaviy ertak terapiya asoschisi D.Zinkevich-Yevstigneeva bunday bolalar bilan ishlashda ertaklarning afzalliklari haqida shunday yozadi: "Folklor asarlari, xususan, ertaklar bolaga himoya beradi. Bola o'zining nomidan emas, balki ertak qahramoni masalan, ayyor tulki yoki jasur botir nomidan gapiradi. Bu jarayonda mas'uliyat boladan qahramonga ko'chadi, natijada ijtimoiy bosim pasayadi. Bola o'zini psixologik niqob ortiga yashiradi. Bu niqob unga erkinlik beradi, "gapirayotgan men emas, bu ayyor tulkinging nutqi!" deb qabul qiladi. Natijada nutqiy apparatdagi spazmlar emotsional erkinlik hisobiga yumshaydi"[2:310]. Chindan ham ertak matni o'zining ritmi, musiqiyliigi va voqealar rivoji bilan bolani o'ziga rom etadi. Bola ertak dunyosiga sho'ng'iganda, uning miyasi nutqni nazorat qilish funksiyasidan voqeani tasvirlash funksiyasiga o'tadi. Nutq avtomatlashadi va bola so'zlarni tanlashga emas, balki obrazni jonlantirishga harakat qiladi. Bu esa fonologik darajadagi to'siqlarni kognitiv darajadagi ijodkorlik bilan yengib o'tishga imkon beradi. Britaniyalik psixoanalitik D.W.Winnicott "O'yin va ertak dunyosi bola o'zini mutlaq xavfsiz his qiladigan hudud bo'lib, bunda nutqiy xatolar jazolanmaydi, aksincha, tajriba sifatida qabul qilinadi"[4:150] deb yozadi.Folklor asarlari bolaning tasavvur dunyosini kengaytiradi. Agar bolada eshitish yoki ko'rish cheklangan bo'lsa, xalq og'zaki ijodidagi boy obrazlar, metaforalar va emotsional bo'yoqdor so'zlar uning miyasida "sun'iy sensor tayanch" hosil qiladi. Ya'ni bola endi o'z nuqsoni haqida o'ylamaydi, u voqelikning faol ishtirokchisiga aylanadi. Nuqson tufayli yuzaga kelgan ruhiy tushkunlik ijodiy-estetik faollik bilan o'rin almashadi. Bu jarayonni quyidagi mantiqiy modelda ifodalash mumkin (1-rasm):



**1-rasm. Folklor vositasida nutqiy-psixologik korreksiya va ijtimoiy integratsiya modeli**

Mazkur model an'anaviy logopediyadagi mexanik mashqlar yondashuvidan ijtimoiy-psixologik rehabilitatsiya yondashuviga o'tishni ifodalaydi.

Folklor asarlar bolalarda hamdardlik tuyg'usini ham shakllantiradi. Buni quyidagi jadvalda yaqqol ko'rishimiz mumkin:

2-jadval

**Folklor vositasida nutq o'stirishning psixologik-korreksion mexanizmlari**

Korreksion bosqich	Psixologik mexanizm	Kutilayotgan natija
Identifikatsiya	Imkoniyati cheklangan bolalarda "mening nutqim nuqsonli" degan qarash shakllanadi. Ertak o'qish jarayonida bola o'zini ijobiy qahramon	Qahramonning nutqiy uslubini o'zlashtirish orqali o'z nutqidagi nuqsonlarni yengib o'tadi.

	bilan bir deb tasavvur qiladi.	
<b>Katarsis</b>	Nutqiy duduqlanish yoki tutilishlarning negizida ichki qoʻrquv va emotsional bosim yotadi. Ertak voqealari rivojidadagi yovuz kuchlarning magʻlub boʻlishi bolada ruhiy yengillikni keltirib chiqaradi.	Ruhiy yengillashish natijasida nutq apparatidagi mushaklar boʻshashib, nutq ravonligi taʼminlanadi.
<b>Empatiya</b>	Qahramonlarning kechinmalarini his qilish orqali bola tildan shunchaki axborotni yetkazish vositasi sifatida emas, balki his-tuygʻu ifodasi sifatida foydalanishni boshlaydi.	Nutqda tabiiy intonatsiya, pauza va emotsional urgʻular paydo boʻladi.

Folklor asarlar oʻquvchilarga milliy oʻzlikni anglatuvchi asosiy manbadir. Uning ijtimoiy-madaniy jihati imkoniyati cheklangan bolalar taʼlimida shaxsning maʼnaviy-axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi, bolaning nutqini milliy qadriyatlar, odob-axloq normalariga oid soʻzlar bilan boyitishni koʻzda tutadi. Bu esa nutq oʻstirish jarayonini maʼnaviy-axloqiy tarbiya bilan yaxlit tizimga birlashtiradi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari oʻzini muayyan bir millat va madaniyat vakili sifatida anglay boshlaydi. Imkoniyati cheklangan bolalarda esa bu jarayon koʻpincha ijtimoiy izolyatsiya tufayli sust kechadi. Xalq ogʻzaki ijodining maqol, matal kabi qisqa, ammo sermazmun janrlari jamiyatdagi xulq-atvor mezonlari, ijtimoiy munosabat normalarining hayotiy ifodasidir. Bu janrlar bolalarga muomala madaniyatini ramziy obrazlar, kinoyali mazmun vositasida yetkazadi. Masalan, “Yaxshilik qil dengizga ot, baliq bilmasa Xoliq biladi”, “Yaxshilik qilsang yetarsan murodga, yomonlik qilsang qolarsan uyatga”, “Yaxshilikka yaxshilik har kishining ishidir, yomonlikka yaxshilik mard kishining ishidir” degan maqollarda mehr-oqibat, fidoyilik kabi tushunchalar qatʼiy axloqiy mezon sifatida namoyon boʻladi. Dialogizm konsepsiyasi asoschisi M.M.Baxtin fikricha “Nutq hech qachon shunchaki fikr aytish vositasi emas, u doimo ijtimoiy yoʻnaltirilgan, boshqa odamga qaratilgan va insonning qadriyatlar tizimiga bogʻliq boʻladi [2:320]. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, folklor bola uchun qanday fikrni, qachon, kim bilan va qay tarzda aytishni oʻrgatadigan nutqiy maktabdir. Ayniqsa, nutqida buzilish yoki tovush yetishmovchiligi boʻlgan oʻquvchilar uchun bu namunaviy iboralar ijtimoiy muloqotga kirishishning asosiy kaliti hisoblanadi. Ular folklor orqali “Assalomu alaykum”, “Baraka toping”, “Ofarin”, “Iltimos”, “Rahmat” kabi iboralarning ijtimoiy ahamiyatini oʻzlashtiradi, bu esa ularning oʻzaro munosabatalarda oʻzini tutish madaniyatini shakllantirishga, nutqiy va axloqiy kamolotiga xizmat qiladi.

Koʻrinadiki, boshlangʻich sinf oʻquvchilari nutqini xalq ogʻzaki ijodi namunalari asosida rivojlantirish nafaqat lisoniy koʻnikmalarni shakllantirish, balki ruhiy qoʻllab-quvvatlash, estetik did tarbiyasi va milliy qadriyatlarni singdirishning oʻzaro uygʻunligiga asoslangan kompleks yondashuvdir. Mazkur integratsiya bolalarning ogʻzaki ifoda koʻnikmalarini ijtimoiy-madaniy kontekstda shakllantirib, nutq oʻstirish mashgʻulotlarini

quruq va mexanik til mashqlari emas, balki mazmunli, badiiy-estetik zavq uygʻotuvchi va hayotiy muloqotga yoʻnaltirilgan ijodiy jarayonga aylantirishga xizmat qiladi.

Maʼlumki, insoniyat tamaddunining ilk beshiklaridan biri boʻlgan qadimgi Sharqda azaldan nutq madaniyati va soʻz sanʼati ijtimoiy nufuzning oliy mezoni hisoblangan. Qadimgi Misr, Bobil, Hindiston va Movarounnahrda xalq ogʻzaki ijodi namunalari nutqiy mahoratini shakllantirishda birlamchi didaktik manba sifatida foydalanilgan. Sharq pedagogik tafakkuri tarixida xalq ogʻzaki ijodi shunchaki axborot uzatish vositasi emas, balki shaxsning ruhiy olamini boyitish va lisoniy qobiliyatlarini ochish quroli boʻlib xizmat qilgan. Y.E.Bertels oʻzining “Xalq eposining shakllanishi” (“Образование народного эпоса”) asarida taʼkidlaganidek, “Xalq ogʻzaki ijodi namunalari milliy oʻzlikni anglash va badiiy tafakkurning ilk kurtaklari hisoblanib, ularda lisoniy izchillik va tasviriy ifodalilik tabiiy ravishda mujassamlashgan” [5:556].

**Xulosa.** Retrospektiv tahlil folklor materiallaridan foydalanishning uch bosqichli evolyutsiyasini koʻrsatadi. Dastlabki bosqichda folklor asosan axloqiy-didaktik vosita va notiqlik sanʼati namunasi sifatida xizmat qilgan boʻlsa, jadidlar davriga kelib u lingvodidaktik vositaga – savod chiqarish va fonetik mashq quroliga aylandi. Keyingi yillarda folklor janrlari rehabilitatsiya vositasi maqomini oldi. Raqamli texnologiyalar asrida esa bu jarayon interfaol usullar, geymifikatsiyaga asoslangan yechimlar orqali amalga oshirilmoqda. Zero, raqamli oʻyinlar bolalarni ongli ravishda nutq va tilni tuzatuvchi harakatlarni bajarishga undaydi va oʻz-oʻzini nazorat qilishni rivojlantiradi. Sunʼiy intellekt asosidagi dasturlar va mobil ilovalar inkluziv taʼlim sifatini yangi bosqichga koʻtaradi. Zero, raqamli vositalar har bir oʻquvchining rivojlanish surʼatiga moslashish va mashqlarni cheksiz takrorlash imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Малофеев Н. Н. Специальное образование в России и за рубежом: методологические основы / Н. Н. Малофеев. – М.: Просвещение, 2009. – 469 с.
2. Зинкевич-Евстигнеева Т. Д. Практикум по сказкотерапии. – Санкт-Петербург: Речь, 2000. – 310 с.
3. Winnicott, D. W. Playing and Reality. – London: Routledge, 1971. – 150 p.
4. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1979. – С. 295-320.
5. Бертельс Е. Э. Избранные труды: История персидско-таджикской литературы / Е. Э. Бертельс. – М.: Изд-во восточной литературы, 1960. – Т. 1. – 556 с.